


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHITIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusubovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Marimov Muzaffar Erkinovich-Urganch Ranch texnologiya universiteti "Ijtimoiy
fanlar" kafedrası stajor-o'qituvchisi

Email: muzaffarmarimov700@gmail.com

**XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG'LIKNI SAQLASH SOHASI
VA UNDAGI O'ZGARISHLAR**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670165>**ANNOTATSIYA**

XX asrning 20-30-yillarda Xorazm okrugida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi sovet islohotlari doirasida muhim bosqich sifatida ko'riladi. Xiva va Urganch shaharlarida shifoxonalar, vrachlik punktlari tashkil etilib, profilaktik tibbiyot va kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratildi. A.S.Anisimov, G.Asfandiyorov, N.A.Samoyleva kabi shifokorlarning faoliyati tizimning poydevorini shakllantirdi. Ushbu davr zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, sog'liqni saqlash, sovet tuzumi, shifoxonalar, mutaxassislar, kasalliklar profilaktikasi, bilim darajasi.

Маримов Музаффар Эркинович-Стажёр-преподаватель кафедры социальных наук
Ургенчского технологического университета Ранч**СФЕРА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ И ЕЁ ИЗМЕНЕНИЯ В ХОРЕЗМСКОМ ОКРУГЕ В 20–
30-Е ГОДЫ XX ВЕКА****АННОТАЦИЯ**

В 1920–1930 годах развитие системы здравоохранения в Хорезмском округе стало важным этапом в рамках советских реформ. В Хиве и Ургенче были созданы больницы и врачебные пункты, акцент делался на профилактическую медицину и подготовку кадров. Деятельность врачей, таких как А.С. Анисимов, Г. Асфандиаров и Н.А. Самойлова, заложила основу системы. Этот период сыграл ключевую роль в формировании современной системы здравоохранения.

Ключевые слова: Хорезм, здравоохранение, советская система, больницы, специалисты, профилактика заболеваний, уровень знаний.

Marimov Muzaffar Erkinovich-Intern Lecturer at the Department of Social Sciences,
Urganch Ranch Technological University

HEALTHCARE SYSTEM AND ITS TRANSFORMATIONS IN THE KHOREZM DISTRICT DURING THE 1920s–1930s

ABSTRACT

During the 1920s and 1930s, the development of the healthcare system in the Khorezm region marked a significant phase within Soviet reforms. Hospitals and medical stations were established in Khiva and Urgench, with emphasis on preventive medicine and personnel training. The contributions of doctors like A.S. Anisimov, G. Asfandiyarov, and N.A. Samoylova formed the foundation of the system. This period was pivotal in shaping the modern healthcare framework.

Key words: Khorezm, healthcare, Soviet system, hospitals, specialists, disease prevention, knowledge level.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Xorazm vohasi O'rta Osiyoning muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida tarixiy rivojlanishda alohida o'rin tutadi. 19-asrning ikkinchi yarmida Xiva shahrida rus tibbiyotining dastlabki elementlari paydo bo'lgan bo'lsa-da, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining shakllanishi 1920-yillardan, ya'ni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi va uning O'zbekiston SSR tarkibiga kirishi bilan boshlandi. 1925-1937-yillar davri sovet ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi sifatida sog'liqni saqlash sohasida sezilarli o'zgarishlar bilan ajralib turdi. Ushbu davrda markazlashgan boshqaruv, infratuzilma rivojlanishi, malakali kadrlar tayyorlash va profilaktik tibbiyotga e'tibor berish orqali aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shu bilan birga, sohada jiddiy muammolar ham mavjud edi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ushbu tadqiqot tarixiy-arxiviy manbalarni o'rganish, ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar asosida sog'liqni saqlash tizimining evolyutsiyasini tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Xorazm viloyat davlat arxivi hujjatlari, sovet davr matbuot manbalari, hamda mahalliy tarixchilarning ilmiy ishlari asosiy manba sifatida foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazm vohasida zamonaviy tibbiyotning ilk qadamlarini 1873-yilda Xiva shahrida ko'rish mumkin. Bu jarayonda Xiva xonining bosh vaziri Islomxo'janing tashabbuslari muhim rol o'ynadi. Uning sa'y-harakatlari natijasida 1913-yilda Xiva shahrida 15 o'rinli shifoxona tashkil etildi [1]. Ushbu shifoxonada viloyatning birinchi malakali shifokorlari, Moskva tibbiyot akademiyasini bitirgan A.S.Anisimov va G.Asfandiyorov faoliyat yuritdilar [1]. Biroq, bu davrda tibbiy xizmatlar asosan boy-badavlat aholi qatlamlari uchun mo'ljallangan bo'lib, keng omma uchun imkoniyatlar cheklangan edi. Shifoxona faoliyati, asosan, shahar elitesining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi, qishloq aholisi esa an'anaviy tabobat usullariga tayanadi. 1920-yilda Xiva xonligining ag'darilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi bilan sog'liqni saqlash tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Xiva shifoxonasi qayta ta'mirlanib, kengaytirildi va sovet tizimining ijtimoiy siyosati doirasida aholining kengroq qatlamlariga xizmat ko'rsatishga yo'naltirildi. 1925-yilda Xorazm okrugi O'zbekiston SSR tarkibiga kiritilgach, sog'liqni saqlash sohasi respublika miqyosidagi islohotlarning bir qismiga aylandi. Bu davrda sog'liqni saqlash tizimi markazlashgan boshqaruvga asoslanib, aholining tibbiy xizmatlardan teng foydalanishini ta'minlashga qaratildi.

1920-yillarning boshlarida Xorazm okrugida sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. 1922-yilda Urganch shahrida shifokor K.V.Ponomareva boshchiligida shifokorlik ambulatoriyasi ochildi. Ushbu ambulatoriya shahar va qishloq aholisiga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishda muhim rol o'ynadi [1].

1926-yilda Urganchda 50 o'rinli shifoxona tashkil etildi, bu viloyatning 1-son shifoxonasi sifatida tanildi. Shifoxona turli bo'limlarga ega bo'lib, 20 o'rin ichki kasalliklarni davolashga, 20 o'rin jarrohlikka, 5 o'rin teri-tanosil kasalliklariga va 5 o'rin tug'ruqxonaga ajratilgan edi. Shifoxonaga terapevt shifokor N.A.Samoylova rahbarlik qildi, keyinchalik 1927-yilda N.A.Shinov bosh vrach sifatida faoliyat yuritdi. 1928-yilga kelib, aholining o'sishi va tibbiy xizmatlarga talabning ortishi natijasida Urganch shahar shifoxonasi qayta ta'mirlanib, 100 o'ringa kengaytirildi.

Shifoxonada 5 ta bo'lim tashkil etilib, bosh shifokor A.A.Shipov rahbarligida 8 nafar shifokor faoliyat yurita boshladi. Ushbu kengayish aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. 1936-yilda Xorazm okrug shifoxonasiga M.I.Gasparyan, 1939-1942-yillarda esa A.N.Lyubomirskiy bosh shifokorlik qildi. Bu shifokorlarning faoliyati tizimning uzluksiz rivojlanishini ta'minladi. Xorazm okrugining qishloq hududlarida vrachlik punktlari (QVP) tashkil etildi, ular dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga xizmat qildi. Bu punktlar qishloq aholisiga tibbiy xizmatlarning qamrovini kengaytirdi, ammo ularning moddiy-texnika bazasi ko'pincha zaif bo'lib, faqat asosiy yordam ko'rsatish bilan cheklandi. Tibbiy muassasalarni jihozlash uchun respublika byudjetidan mablag'lar ajratildi, lekin bu resurslar ko'pincha yetarli emas edi, bu esa infratuzilma rivojlanishini sekinlashtirdi.

Sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq edi. 1920-yillardan boshlab Xorazm okrugida mahalliy aholidan tibbiy xodimlar, xususan, feldsherlar va hamshiralar tayyorlashga e'tibor qaratildi [2]. Xiva shahrida tashkil etilgan tibbiy kurslar orqali mahalliy yoshlar tibbiy ta'lim oldi. Bu kurslar o'zbek, turkman va qoraqalpoq tillarida olib borilib, ta'limning samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, Toshkent va Samarqanddagi tibbiy institutlar bilan hamkorlik orqali okrugdan kelgan talabalar oliy tibbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. A.S.Anisimov va G.Asfandiyorov kabi shifokorlarning faoliyati mahalliy kadrlar uchun namuna bo'ldi. Ularning Moskva tibbiyot akademiyasida olgan ta'limi Xorazmda zamonaviy tibbiyot amaliyotlarini joriy etishga yordam berdi. Biroq, malakali shifokorlar soni, ayniqsa qishloq hududlarida, yetarli emas edi. Ko'pincha vrachlik punktlarida tajribasiz feldsherlar yoki o'rta tibbiy ma'lumotga ega xodimlar ishlagan, bu esa davolash sifatiga ta'sir qildi.

1925-1937-yillarda Xorazm okrugida profilaktik tibbiyot sohasida muhim qadamlar tashlandi. Sovet hukumati tomonidan yuqumli kasalliklar, xususan, bezgak, sil va teri-tanosil kasalliklariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Sanitariya-epidemiologiya stansiyalari tashkil etilib, aholiga gigiyena qoidalarini o'rgatish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bilan shug'ullandi. Shu bilan birga, ona va bolalar salomatligiga alohida e'tibor berildi, tug'ruqxonalar va bolalar poliklinikalari tashkil etilib, chaqaloqlar o'limi va ona salomatligi bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga harakat qilindi. Emlash kampaniyalari joriy etilib, yuqumli kasalliklarga qarshi himoya choralari ko'rildi. Biroq, aholining sog'liq savodxonligining pastligi profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini pasaytirdi. Qishloq joylarda an'anaviy dunyoqarash va ta'lim darajasining pastligi zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanishni chekladi. Masalan, bezgak kabi kasalliklarga qarshi emlash va profilaktik choralar mahalliy aholi tomonidan to'liq qabul qilinmadi, chunki ko'pchilik an'anaviy tabobatga ko'proq ishonardi. Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi Xorazm okrugidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq edi. 1920-yillarning oxirlarida boshlangan kollektivlashtirish jarayonlari aholining yashash sharoitlariga ta'sir ko'rsatdi. Kollektiv xo'jaliklar tashkil etilishi qishloq aholisining shahar markazlaridagi tibbiy muassasalarga kirish imkoniyatini oshirdi, ammo transport infratuzilmasining zaifligi tufayli bu imkoniyatlar cheklangan edi. Sovet hukumatining ijtimoiy tenglikka qaratilgan siyosati sog'liqni saqlash xizmatlarini keng ommaga yetkazishga xizmat qildi. Biroq, shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi farq sezilarli bo'lib qoldi. Shahar markazlaridagi shifoxonalar zamonaviyroq jihozlar va malakali shifokorlar bilan ta'minlangan bo'lsa, qishloqlardagi vrachlik punktlari ko'pincha faqat dastlabki yordam ko'rsatish bilan cheklandi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlarga qaramay, Xorazm okrugida bir qator jiddiy muammolar mavjud edi:

1. Tibbiy kadrlarning yetishmasligi: Malakali shifokorlar soni, ayniqsa qishloq hududlarida, juda kam edi. Vrachlik punktlarida ko'pincha tajribasiz feldsherlar yoki o'rta tibbiy ma'lumotga ega xodimlar ishlagan, bu davolash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2. Moddiy-texnika bazasining zaifligi: Shifoxonalar va vrachlik punktlari zamonaviy asbob-uskunalar bilan yetarlicha ta'minlanmagan edi. Diagnostika va murakkab jarrohlik imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bemorlar ko'pincha shahar markazlariga yuborilardi, bu esa transport muammolari tufayli kechiktirilardi.

3. Mahalliy xususiyatlarning e'tiborsiz qolishi: Sovet tizimining markazlashgan yondashuvi Xorazmning iqlimiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini to'liq hisobga olmadi. Masalan, bezgak kabi mahalliy kasalliklarga qarshi kurashda maxsus dasturlar yetishmasdi.

4. Sog'liq savodxonligining pastligi: Aholining katta qismi, ayniqsa qishloqlarda, gigiyena va profilaktika bo'yicha yetarli bilimlarga ega emas edi. Bu yuqumli kasalliklarning tarqalishini nazorat qilishni qiyinlashtirdi.

5. Moliyaviy cheklovlar: Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar ko'pincha yetarli emas edi. Tibbiy jihozlar va dori-darmonlar yetkazib berishda kechikishlar yuzaga keldi, bu yangi muassasalarning to'liq ishga tushishini qiyinlashtirdi.

6. Ijtimoiy tengsizlik: Shahar aholisi va kollektiv xo'jalik xodimlari tibbiy xizmatlardan ko'proq foydalansa, chekka qishloqlardagi ayollar va bolalar uchun imkoniyatlar cheklangan edi. Bu ona va bolalar o'limi kabi muammolarni to'liq bartaraf etishga to'sqinlik qildi.

XULOSA

1925-1937-yillarda Xorazm okrugida sog'liqni saqlash sohasi sovet islohotlari doirasida sezilarli rivojlandi. Xiva va Urganch shaharlaridagi shifoxonalar, vrachlik punktlari, profilaktik dasturlar va malakali shifokorlar (A.S.Anisimov, G.Asfandiyorov, N.A.Samoyleva, A.A.Shipov va boshqalar) faoliyati tizimning poydevorini shakllantirdi. Shu bilan birga, kadrlar yetishmasligi, moddiy cheklovlar, aholining past savodxonligi, mahalliy xususiyatlarning e'tiborsiz qolishi va ijtimoiy tengsizliklar kabi muammolar tizimning samaradorligini pasaytirdi. Ushbu davr Xorazmda zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining asoslarini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, keyingi islohotlar uchun muhim saboqlar berdi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. E.Ermatov, O.Sotliqov. Ibn Sino izdoshi. - Urganch, 1995.
2. ЎзМА, Р-86-фонд, Ўзбекистон ССР Марказий ижро қўмитаси
3. “Инқилоб қуёши” газетаси, 1927, 20-июль сони
4. Хоразм вилояти давлат архиви, Ф.27, рўйхат 1, д.10, 4 варақ, Ф.45, рўйхат 1, д.
5. Махмудова М. Хоразм тиббиёти тарихи. - Урганч, 2022.
6. Машарипов О. Хоразмнома. 3-китоб: XIV асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг биринчи чорагида Хоразм, Хива хонлиги. - Урганч: Хоразм, 2009

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000